

FARG'ONA VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*Dastlabki ma'lumot
2024- yil yanvar-avgust*



*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel. 73-241-97-68*

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1-sentabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 7 705 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 147 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 7 558 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar-avgust oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 18 005,6 mlrd so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 108,3 % ga yetdi. Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 1 836,9 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 136,9 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 16 168,7 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 105,8 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 551,9 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 115,9 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd so'm	2023- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda
Farg'ona viloyati	18 005,6	108,3
shaharlar		
Farg'ona	2 994,4	109,0
Qo'qon	2 683,9	108,9
Quvasoy	332,0	107,8
Marg'ilon	2 504,1	108,6
tumanlar		
Oltiariq	650,8	108,1
Qo'shtepa	364,4	107,5
Bag'dod	454,0	108,3
Buvayda	1 093,1	108,0
Beshariq	627,0	108,2
Quva	829,4	108,3
Uchko'prik	2 163,2	108,6
Rishton	444,2	107,0
So'x	571,3	105,6
Toshloq	565,6	107,8
O'zbekiston	364,9	108,2
Farg'ona	494,4	107,2
Dang'ara	429,3	107,9
Furqat	186,8	107,1
Yozyovon	252,8	107,5


2024- yilning yanvar-avgust oylarida 2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan viloyatning Farg'ona (**109,0** %), Qo'qon (**108,9**) va Marg'ilon (**108,6**) shaharlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-avgust)




So'nggi 5 yillikda (2020- 2024- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 109,4 % ni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda) (2023- yil ,2024-yil yanvar-avgust oylari)



2024- yilning yanvar-avgust oylarida o'sish sur'ati **108,3 %** ni tashkil qildi.

Ulushi, foizda



Hajmi, mlrd so'm

Farg'ona sh	2 994,4
Qo'qon sh.	2 683,9
Marg'ilon sh	2 504,1
Uchko'prik	2 163,2
Buyayda	1 093,1
Quva	829,4
Oltiariq	650,8
Beshariq	627,0
So'x	571,3
Toshloq	565,6
Farg'ona	494,4
Bag'dod	454,0
Rishton	444,2
Dang'ara	429,3
O'zbekiston	364,9
Qo'shtepa	364,4
Quvasoy sh	332,0
Yozyovon	252,8
Furqat	186,8

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Farg'ona shahri 16,6 % bilan 2 994,4 mlrd so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Furqat tumani 1,0 % bilan 186,8 mlrd so'mni tashkil etdi.

2023 - yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi

2024-yilning yanvar-avgust oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra,


16 168,7 mlrd so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 5,8% ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 89,8 % ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 36,9 % ga o'sdi va 1 836,9 mlrd so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining


10,2 % ulushiga to'g'ri keldi.



Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)




CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha So'x t (99,4 %), Toshloq (98,9 %) va Quvasoy (98,8 %) shahari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 10,2 % ni tashkil etib, eng katta ulush Uchko'prik (57,3 %), Dang'ara (14,4 %), tumanlarida kuzatildi.

10,2 %

89,8 %



Yirik korxonalar

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik




Hududlar kesimida ma'lumot, ming so'mda



2024- yilning yanvar-avgust oylari holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

4 413,0 ming so'mni (2023- yilning yanvar-avgust oylariiga nisbatan 106,1 %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Marg'ilon (9 839,2 ming so'm), Farg'ona (9 262,0 ming so'm) va Qo'qon (8 668,9 ming so'm) shaharlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar-avgust), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari


Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy voki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd so'm	2023- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda
Farg'ona viloyati	1 551,9	115,9
shaharlar		
Farg'ona	191,2	127,7
Qo'qon	140,5	94,9
Quvasoy	36,7	110,3
Marg'ilon	156,2	99,6
tumanlar		
Oltiariq	38,3	112,0
Qo'shtepa	47,1	71,1
Bag'dod	130,1	281,1
Buvayda	179,8	102,1
Beshariq	179,2	114,7
Quva	119,4	121,7
Uchko'prik	52,0	129,7
Rishton	90,8	125,4
So'x	29,1	137,0
Toshloq	34,9	119,7
O'zbekiston	38,2	141,3
Farg'ona	24,0	92,3
Dang'ara	7,3	111,7
Furqat	1,4	86,1
Yozyovon	55,5	111,6


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi
o'sish sur'atlari**
(2024- yil yanvar-avgust)














**Hududlar kesimida uyushmagan
savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm**
(2024- yil yanvar-avgust)



Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-avgust oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 551,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 115,9 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 976,7 mlrd so'mni (132,0%), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 575,1 mlrd so'mni tashkil etdi (109,7 %).













2024-yilning yanvar-avgust oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 976,7 mlrd so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (368,4 mlrd so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>368,4 mlrd so'm</p>  <p>37,7 %</p>	<p>Non va non mahsulotlari</p> <p>84,6 mlrd so'm</p>  <p>8,7 %</p>	<p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>163,2 mlrd so'm</p>  <p>16,7 %</p>
<p>Tovuq go'shti</p> <p>41,4 mlrd so'm</p>  <p>4,2 %</p>	<p>Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>63,0 mlrd so'm</p>  <p>6,5 %</p>	<p>Tuxum</p> <p>56,3 mlrd so'm</p>  <p>5,8 %</p>
<p>Ziravorlar</p> <p>35,3 mlrd so'm</p>  <p>3,6 %</p>	<p>Sut va sut mahsulotlari</p> <p>32,0 mlrd so'm</p>  <p>3,3 %</p>	<p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</p> <p>21,7 mlrd so'm</p>  <p>2,2 %</p>
<p>Tuzlamalar</p> <p>21,1 mlrd so'm</p>  <p>2,2 %</p>	<p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</p> <p>16,3 mlrd so'm</p>  <p>1,7%</p>	<p>Nooziq-ovqat tovarlar</p> <p>73,4 mlrd. so'm</p> <p>7,4 %</p>

2024- yilning yanvar-avgust oyida, Viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 575,1 mlrd so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 448,8 mlrd so'm, qo'y va echkilar – 116,8 mlrd so'mni, otlar – 6,0 mlrd so'mni, parrandalar – 3,5 mlrd so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>250,3 mlrd so'm</p>  <p>43,5 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>108,9 mlrd so'm</p>  <p>18,9 %</p>	<p>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</p> <p>89,6 mlrd so'm</p>  <p>15,6 %</p>
<p>Qo'ylar</p> <p>114,6 mlrd so'm</p>  <p>19,9 %</p>	<p>Otlar</p> <p>6,0 mlrd so'm</p>  <p>1,1 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>2,2 mlrd so'm</p>  <p>0,4 %</p>
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>1,3 mlrd so'm</p>  <p>0,2 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p>1,7 mlrd so'm</p>  <p>0,3 %</p>	<p>Quyionlar</p> <p>0,4 mlrd so'm</p>  <p>0,1 %</p>
<p>Qushlar</p> <p>0,1 mlrd so'm</p>  <p>0,01%</p>		

2024- yil 1- sentabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1 966 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 2 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 964 tani tashkil qildi.

	Jami, mlrd so'm	2023- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda
Farg'ona viloyati	456,7	106,5
shaharlar		
Farg'ona	169,1	102,1
Qo'qon	37,7	114,3
Quvasoy	8,2	108,7
Marg'ilon	65,1	110,8
tumanlar		
Oltiariq	14,2	107,6
Qo'shtepa	10,0	106,1
Bag'dod	8,5	104,1
Buvayda	7,6	109,6
Beshariq	13,0	109,1
Quva	16,6	104,0
Uchko'prik	14,9	110,2
Rishton	15,1	104,4
So'x	11,9	102,8
Toshloq	12,8	107,4
O'zbekiston	7,9	112,2
Farg'ona	13,7	107,3
Dang'ara	10,8	111,7
Furqat	10,7	107,8
Yozyovon	8,7	107,6

2024- yilning yanvar-avgust oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 456,7 mlrd so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 106,9 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 99,3 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd so'm	Ulushi, foizda
Farg'ona viloyati	3 972,5	100,0
Shaharlar		
Farg'ona	1260,9	31,7
Qo'qon	1750,9	44,1
Quvasoy	10,9	0,3
Marg'ilon	290,6	7,3
Tumanlar		
Oltiariq	24,8	0,6
Qo'shtepa	3,2	0,1
Bag'dod	5,6	0,1
Buvayda	14,1	0,4
Beshariq	3,5	0,1
Quva	11,3	0,3
Uchko'prik	85,3	2,1
Rishton	5,4	0,1
So'x	28,9	0,7
Toshloq	58,9	1,5
O'zbekiston	11,7	0,3
Farg'ona	3,5	0,1
Dang'ara	157,8	4,0
Furqat	17,1	0,4
Yozyovon	227,8	5,7


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Qo'qon (1 750,9 mlrd so'm), Farg'ona (1 260,9 mlrd so'm) va Marg'ilon (290,6 mlrd so'm) shaharlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so‘m)




2024- yilning yanvar-avgust oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 3 972,5 mlrd so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 31,3 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 1 638,3 mlrd so'm (o'sish sur'ati – 125,0 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 1 936,3 mlrd so'mni (o'sish sur'ati – 2,9 m ko'paydi) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.



Viloyat bo‘yicha 2024- yilning yanvar-avgust oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 11 757,3 mlrd so‘mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 8,0 % ga o‘ydi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining 11 245,2 mlrd so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 109,2 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 95,6 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATI

2024- yil 1- sentabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 4 278 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 25 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 4 253 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o‘shish sur‘atlariga ega eng yirik korxonalar Uchko‘prik t (49,6 m), Rishton (5,6 m) va Bag‘dod (4,6 m) tumanlarida kuzatildi.

	Hajmi, mlrd so‘m	2023- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda
Farg‘ona viloyati	11 757,3	108,0
Shaharlar		
Farg‘ona	2552,2	111,0
Qo‘qon	2341,9	101,9
Quvasoy	405,7	109,1
Marg‘ilon	2835,8	107,5
Tumanlar		
Oltiariq	208,0	94,7
Qo‘shitepa	94,9	99,6
Bag‘dod	83,8	104,1
Buvayda	358,9	106,6
Beshariq	148,8	105,2
Quva	63,5	108,3
Uchko‘prik	932,9	155,0
Rishton	51,8	114,9
So‘x	8,7	60,3
Toshloq	813,1	98,1
O‘zbekiston	164,1	96,5
Farg‘ona	295,8	102,1
Dang‘ara	277,4	100,6
Furqat	74,8	104,0
Yozyovon	45,3	98,6